O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

FAN-SPORTGA

ILMIY-NAZARIY JURNAL

2026/3



ISSN: 2181 7804

FAN Sportga
ilmiy-nazariy jurnali

Texnik tahririyat tarkibi:

N.N. G‘afforov
U.O. Azimova
M.S. Ayxodjaeva
M. Rahmonov

fan-sportga.uz

**“FAN – SPORTGA”
ilmiy-nazariy jurnali**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti muassisligida chop etiladi

Tahririyat manzili:
111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy.

Mazkur ilmiy jurnal elektron formatda nashr qilinadi

05.02.2018 yilda Toshkent shahrida ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ro‘yxatga olish raqami № 02-005 “FAN – SPORTGA” jurnali 2004 yildan nashr etiladi.

Suratlar muallifi:
Anvar Ilyasov
Abdullo Fayzullayev

2026/3

A.A. Utepov – Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi karatechilarning kumite (erkin jang) dasturi bo‘yicha qo‘l zarbalari texnik harakatlarini rivojlantirish uslubiyati. 69

С.А. Петрянин – К развитию процесса тактической подготовки дзюдоистов юниоров на этапе совершенствования спортивного мастерства. 74

A.P. Boyqobilov – 200 m masofa yuguruvchi malakali yengil atletika talabalarining maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari va ularni shakllantirish. 77

**ADAPTIV JISMONIY TARBIYA
ADAPTIVE PHYSICAL EDUCATION
АДАПТИВНАЯ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА**

D.O. Maxamatova – Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘spirin yoshidagi sportchilarda emotsional intellektning namoyon bo‘lishi. 81

D.B. Baxtiyorov – Yuqori malakali amputant futbolchilarda musobaqa oldi mashg‘ulotlarini rejalashtirish. 85

**JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TIBBIY-BIOLOGIK VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI
MEDICAL-BIOLOGICAL AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORT
МЕДИКО-БИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

A.N.Shopulatov – Yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga nisbatan qadriyatli yondashuvni shakllantirish yo‘llari. 88

N.M. Muxitdinova – Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida harakat faoliyatlarini o‘rgatishda vizual metodlardan foydalanishning nazariy tahlili. 92

N.F. Saloxiddinov – Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini shakllanishi. 95

O.M. Jiyanov – Sport mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda ilmiy yondoshuvlarning ahamiyati hamda samaradorligi. 99

N.A. Chorshamiyev – Umumta’lim maktablarida sport to‘garaklari orqali o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash hamda sportga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya mazmunini optimallashtirish. 104

U.I. Sultonov – O‘quv-mashg‘ulot guruhidagi uzoq masofaga yuguruvchilarning musobaqa oldi mezosikllarini rejalashtirish uslubiyati. 107

D.S. Nurullayeva – Sportchilar va murabbiylar faoliyatini rivojlantirishda qonunchilik yangiliklarining nazariy-huquqiy asoslari va amaliy samaradorligi. 110

F.Ch. Ziyayev – Bosqon uloqtiruvchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida murabbiy va sportchi o‘rtasidagi pedagogik muloqotning o‘rni. 113

J.A. Alimov – Malakali gandbolchi-qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati. 116

M.Sh. Ismailova., J.N. Asatillaev., Sh.T. Xaydarov – Malakali sportchilarda yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining jismoniy yuklamadan keyingi tiklanish dinamikasini o‘rganish. 122

rivojlantirish mexanizmi. Fan-sportga, 9(2), 28–30. https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i2.a008
7. Valixonov, U. (2026). Maxsus tibbiy guruhlarga mansub talabalar sonining ortish tendensiyalari va sog'lomlashtiruvchi atletik gimnastikaning optimal turlari. Fan-sportga, 9(2), 45–48. https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i2.a013



Mustaqil izlanuvchi
U.I. SULTONOV[1]
[1]Qo'qon davlat universiteti
Qo'qon shahri, O'zbekiston
https://orcid.org/0009-0008-6412-4666

https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i3.a029

O'QUV-MASHG'ULOT GURUHIDAGI UZOQ MASOFAGA YUGURUVCHILARNING MUSOBAQA OLDI MEZOSIKLLARINI REJALASHTIRISH USLUBIYATI

Annotatsiya

В данной статье раскрываются методические основы планирования предсоревновательных мезоциклов у бегунов на длинные дистанции в условиях учебно-тренировочной группы. В исследовании проанализированы структура, содержание и оптимальное распределение тренировочных нагрузок в предсоревновательном мезоцикле, а также рассмотрены вопросы повышения уровня функциональной готовности спортсменов и обеспечения выхода на пик спортивной формы к соревновательному периоду.

Ключевые слова: *Бег на длинные дистанции, предсоревновательный мезоцикл, планирование тренировок, специальная выносливость, скоростная выносливость, распределение нагрузок, функциональная готовность, спортивная результативность, восстановительный процесс.*

Abstract

Mazkur maqolada o'quv-mashg'ulot guruhidagi uzoq masofaga yuguruvchilarning musobaqa oldi mezosikllarini rejalashtirishning uslubiy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda musobaqa oldi mezosiklning tuzilishi, mazmuni hamda yuklamalarning optimal taqsimlanishi tahlil qilinib, sportchilarning funksional tayyorgarligini yuqori darajaga olib chiqish va musobaqa davriga maksimal sport formasida kirishini ta'minlash masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *uzoq masofaga yugurish, musobaqa oldi mezosikli, mashg'ulotni rejalashtirish, maxsus chidamlilik, tezlik-chidamlilik, yuklamalarni taqsimlash, funksional tayyorgarlik, sport natijadorligi, tiklanish jarayoni.*

This article highlights the methodological foundations for planning pre-competition mesocycles in long-distance runners within a training group. The study analyzes the structure, content, and optimal distribution of training loads in the pre-competition mesocycle, and examines issues related to improving athletes' functional readiness and ensuring peak performance during the competitive period.

Keywords: *Long-distance running, pre-competition mesocycle, training planning, special endurance, speed endurance, load distribution, functional readiness, sports performance, recovery process.*

Dolzarbligi. So'nggi yillarda respublikamizda yengil atletika sport turini, ayniqsa yugurish yo'nalishini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti i tomonidan 2021-yil 5-noyabrda qabul qilingan PQ-5282-son "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va 'Workout' sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida yurish va yugurish sport turlarini tizimli ravishda rivojlantirish, ularni ilmiy-metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash, sport zaxirasini shakllantirish hamda professional sportchilar tayyorlash sifatini oshirish vazifalari aniq belgilab berilgan.

Mazkur qarorda sport mashg'ulotlari samaradorligini oshirish, ilmiy asoslangan tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali sportchilarni xalqaro musobaqalarga puxta tayyorlash hamda sport natijadorligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan. Bu esa o'quv-mashg'ulot guruhlarida shug'ullanayotgan uzoq masofaga yuguruvchilarning tayyorgarlik jarayonini zamonaviy sport nazariyasi va metodikasi asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi o'quv-mashg'ulot guruhidagi uzoq masofaga yuguruvchilarning musobaqa oldi mezosikllarini ilmiy-uslubiy asosda rejalashtirish modelini ishlab chiqish hamda uning sportchilarning funksional tayyorgarligi, maxsus chidamliligi va musobaqa natijadorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifasi.

1. Musobaqa oldi mezosiklida mashg'ulot yuklamalarining hajmi va shiddatini optimal taqsimlash, maxsus chidamlilik hamda tezlik-chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali rejalashtirish modelini ishlab chiqish.

2. Ishlab chiqilgan mezosikl rejalashtirish modelining sportchilarning funksional tayyorgarligi va musobaqa natijadorligiga ta'sirini tajriba-sinov orqali aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqotni tashkil etilishi. Tadqiqot Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanida joylashgan bolalar-o'smirlar sport maktabining o'quv-mashg'ulot bosqichida shug'ullanuvchi yengil atletikaning uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarining mashg'ulot jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotda jami 36 nafar sportchi (18 nafardan nazorat va tajriba guruhi) ishtirok etdi. Ular 15-16 yosh toifasiga mansub bo'lib, mazkur yosh uchun musobaqa dasturiga kiritilgan 3000 metr masofaga yugurish bo'yicha ixtisoslashgan. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Tayyorlov bosqichi - ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi va umumlashtirildi, mavjud mashg'ulot dasturlari o'rganildi hamda dastlabki test sinovlari o'tkazildi.

2. Asosiy tajriba bosqichi - tajriba guruhida ishlab chiqilgan musobaqa oldi mezosikl rejalashtirish modeli asosida mashg‘ulotlar olib borildi, nazorat guruhida esa an’anaviy mashg‘ulot dasturi qo‘llanildi.

3. Yakuniy bosqich - tajriba boshidagi va tajriba oxiridagi ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslandi, olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqotni o‘tkazishda quyidagi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi:

ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, nazorat testlari (3000 m yugurish natijalari, maxsus chidamlilik testlari), pulsometriya (yurak urish chastotasini aniqlash), matematik statistika usullari. Quyida aniqlangan muammoni ijobiy hal etish maqsadida ishlab chiqilgan rejalashtirish uslubiyatiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Musobaqa oldi mezosiklini rejalashtirish modeli

Quyida aniqlangan muammoni ijobiy hal etish maqsadida uzoq masofaga yuguruvchilarning musobaqa oldi mezosiklini rejalashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy model ishlab chiqildi. Ushbu model amaliy va nazariy jihatdan asoslangan bo‘lib, u mashg‘ulot yuklamalari, tiklanish va test natijalarini kompleks tarzda hisobga oladi.

Modelning asosiy printsiplari:

Ilmiy asoslangan yuklama taqsimoti: mashg‘ulotlar hajmi va shiddati sportchining individual xususiyatlari va musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichlariga mos holda belgilanadi.

Funksional tayyorgarlikni optimallashtirish: maxsus chidamlilik, tezlik-chidamlilik va aerob imkoniyatlar musobaqaga tayyorlash jarayonida bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

Tiklanish va monitoring: mashg‘ulotlar oralig‘ida pulsometriya va test natijalari orqali tiklanish darajasi nazorat qilinadi.

1-jadval

Mezosikl strukturasining bosqichlari

Bosqich	Vaqti	Maqsadi	Mashg‘ulot xususiyatlari	Test va monitoring
Tayyorlov	3-4 hafta	Umumiy va maxsus chidamlilikni shakllantirish	Haftada 5-6 mashg‘ulot, hajmning 60-70%, o‘rta shiddat	Yurak urish chastotasi, aerob testlar
Asosiy	4-5 hafta	Musobaqa oldi maxsus chidamlilik va tezlikni rivojlantirish	Hajm 70-85%, shiddatni oshirish, interval yugurishlar	Maxsus chidamlilik testlari, 3000 m natija
Yakuniy	1-2 hafta	Musobaqa pikasiga chiqish, tiklanish	Hajm 50-60%, shiddat yuqori, qisqa intervallar	3000 m musobaqa sinovi, pulsometriya

Uzoq masofaga yuguruvchilarni musobaqa oldi tayyorlash jarayonida mezosikl uch bosqichga bo‘linadi: tayyorlov, asosiy va yakuniy. Har bir bosqichning maqsadi, mashg‘ulot xususiyatlari va nazorat usullari aniq belgilangan bo‘lib, ular sportchilarning funksional tayyorgarligini maksimal darajaga olib chiqishga qaratilgan.

1. Tayyorlov bosqichi (3-4 hafta). Tayyorlov bosqichi o‘quv-mashg‘ulot guruhidagi sportchilarda umumiy va maxsus chidamlilikni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu davrda mashg‘ulotlar haftasiga 5-6 marotaba amalga oshiriladi, hajmi 60-70% darajada bo‘lib, shiddat o‘rta darajada belgilanadi. Mazkur bosqichda sportchilarning yurak urish chastotasi doimiy ravishda nazorat qilinadi va aerob imkoniyatlarini baholash maqsadida testlar o‘tkaziladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi sportchining organizmini musobaqa oldi yuklamalarga tayyorlash, umumiy chidamlilikni rivojlantirish va maxsus chidamlilikni shakllantirishdir.

2. Asosiy bosqichi (4-5 hafta). Asosiy bosqich sportchilarning maxsus chidamliligini va tezlikni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Mashg‘ulotlar hajmi 70-85% darajasiga yetkaziladi va shiddat bosqichma-bosqich oshiriladi. Ushbu davrda interval yugurishlar, tezlikni rivojlantiruvchi maxsus mashqlar va chidamlilikni oshiruvchi komplekslar qo‘llaniladi. Nazorat va monitoring maqsadida maxsus chidamlilik testlari hamda 3000 metr masofaga yugurish natijalari muntazam o‘lchanadi. Bu bosqich sportchilarning musobaqa oldi tayyorgarlik darajasini maksimal darajaga olib chiqadi, ularni musobaqaga tayyor holatga keltiradi.

3. Yakuniy bosqichi (1-2 hafta). Yakuniy bosqich - musobaqa oldi tayyorgarlikning eng muhim davri bo‘lib, unda sportchilarni pikasiga chiqarish va tiklanishni ta’minlashga e’tibor qaratiladi. Mashg‘ulot hajmi 50-60% darajaga kamaytiriladi, shiddat esa yuqori bo‘lib, qisqa intervallar qo‘llaniladi. Bu davrda sportchilar 3000 metr masofaga musobaqa sinovlaridan o‘tkaziladi, pulsometriya orqali yurak urish chastotasi nazorat qilinadi. Shu bilan birga, sportchilarning maksimal sport formasiga chiqishi va funksional imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishi ta’minlanadi

Tadqiqotni natijalari va muhokamasi. Tadqiqot davomida Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumanidagi bolalar-o‘smirlar sport maktabining uzoq masofaga yuguruvchi sportchilari (36 nafar, 18 nafar nazorat va 18 nafar tajriba guruhi) yil boshida, o‘rta va yil oxirida olingan natijalari hamda musobaqa ko‘rsatkichlari bo‘yicha qiyosiy tahlil qilindi. Sportchilarning mashg‘ulot jarayoni musobaqa oldi mezosikl asosida rejalashtirildi va ularning funksional tayyorgarligi, maxsus chidamlilik hamda musobaqa natijalari monitoring qilindi.

2-jadval

Uzoq masofaga yuguruvchilarning tajriba boshi va oxiridagi natijalar tahlili

Guruh	Vaqt	3000 m yugurish vaqti (min/sek)	Yurak urish chastotasi (o‘rtacha)	Maxsus chidamlilik indeksi
Nazorat guruhi	Yil boshida	12:45	178	70%
	O‘rta	12:20	176	74%
	Yil oxiri	12:10	175	75%
	Musobaqa	12:05	174	76%
Tajriba guruhi	Yil boshida	12:50	179	69%
	O‘rta	12:05	173	78%
	Yil oxiri	11:45	170	82%
	Musobaqa	11:35	168	85%

Izoh: Natijalardan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhi sportchilari musobaqa oldi mezosikl bo‘yicha rejalashtirilgan mashg‘ulotlarni amalga oshirish natijasida yil boshidan yil oxirigacha 3000 metr masofaga yugurish vaqtini 1 daqiqa 15 soniyaga yaxshilashga muvaffaq bo‘ldi. Shu bilan birga, maxsus chidamlilik indeksi 16% ga oshdi va yurak urish chastotasi musobaqa paytida sezilarli darajada pasaydi.

Nazorat guruhi esa an’anaviy mashg‘ulot dasturini bajargan bo‘lib, yil davomida vaqtni 35 soniya, maxsus chidamlilikni esa 6% ga oshira oldi. Bu farq, ilmiy asoslangan musobaqa oldi mezosikli rejalashtirishning samaradorligini yaqqol ko‘rsatadi.



1-rasm. Tahlil natijalari

Tajriba guruhi natijalari shuni ko‘rsatadiki musobaqa oldi mezosiklda yuklamaning bosqichma-bosqich oshirilishi va shiddatning moslashtirilishi sportchilarning maxsus chidamliligi va tezlik imkoniyatlarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Pulsometriya natijalari yurak faoliyatining optimallashganini, tiklanish jarayonining samarali tashkil etilganini ko‘rsatadi. Nazorat guruhi bilan solishtirganda, ilmiy asoslangan rejalashtirish bo‘yicha mashg‘ulotlar sportchilarning musobaqa natijalarini sezilarli darajada yaxshilashga imkon berdi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarni musobaqa oldi mezosikl asosida ilmiy-uslubiy jihatdan rejalashtirish ularning funksional tayyorgarligi va musobaqa natijadorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan mezosikl modeli tayyorlov, asosiy va yakuniy bosqichlardan iborat bo‘lib, mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va shiddatini bosqichma-bosqich optimallashtirish, shuningdek tiklanish jarayonini monitoring qilish imkonini berdi.

Tajriba natijalari shuni tasdiqladiki, ilmiy asoslangan mezosikl rejalashtirish modeli qo‘llanilgan tajriba guruhida 3000 metr masofaga yugurish natijalari sezilarli darajada yaxshilandi. Xususan, yil boshiga nisbatan musobaqa davrida yugurish vaqti 1 daqiqa 15 soniyaga yaxshilandi, maxsus chidamlilik indeksi 16% ga oshdi hamda yurak urish chastotasining pasayishi sportchilarning funksional imkoniyatlari yaxshilanganini ko‘rsatdi. Nazorat guruhida esa natijalar nisbatan kam o‘sish kuzatildi.

Shu asosda aytish mumkinki, musobaqa oldi mezosikllarni ilmiy asosda rejalashtirish, mashg‘ulot yuklamalarini tizimli taqsimlash va pulsometriya orqali monitoring olib borish uzoq masofaga yuguruvchi sportchilarning maxsus chidamliligini rivojlantirish hamda musobaqa natijadorligini oshirishda samarali metodik yondashuv hisoblanadi. Mazkur uslubiy model sport maktablari va o‘quv-mashg‘ulot guruhlarida uzoq masofaga yuguruvchilarni tayyorlash jarayonida amaliy jihatdan qo‘llash uchun tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Stellingwerff, T., Maughan, R. J., & Burke, L. M. (2019). Nutrition for power sports: Periodized training and nutrition strategies. London: Routledge, 45–67.
2. Olimov, M. S., Soliev, I. R., & Haydarov, B. Sh. (2019). Yengil atletikachilarning ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg‘ulot yuklamalarini taqsimlash va boshqarish texnologiyasi [Technology of distributing and managing training loads in long-term preparation stages of track and field athletes]. Tashkent: O‘zbekiston Sport, 22–41.
3. Qurbonov, X. (2026). O’rta masofalarga yuguruvchilar sport mahoratini takomillashtirish bosqichi ikkinchi yilida sport formasini rivojlantirish mexanizmi. Fan-sportga, 9(2), 28–30. https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i2.a008
4. Qurbonov, X. (2026). Ko’p yillik tayyorgarlik bosqichlarida o’rta masofalarga yuguruvchilar sport formasini bosqichli takomillashtirish mexanizmi. Fan-sportga, 9(2), 83–86. https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i2.a024
5. Qurbonov, X. (2026). Methodology for developing the sports form of middle-distance runners in the third year of the training stage. Eurasian Journal of Sport Science, 6(1), 36–40. https://doi.org/10.65149/eajss.2026.v6i1.a008.

Dotsent
D.S. NURULLAYEVA[1]
[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Chirchiq shahri, O‘zbekiston

https://orcid.org/0009-0002-1940-4366

https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i3.a030

SPORTCHILAR VA MURABBIYLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA QONUNCHILIK YANGILIKLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY SAMARADORLIGI

Annotatsiya

В данной статье проводится научно-правовой анализ новой редакции Закона Республики Узбекистан «О физической культуре и спорте». Исследование направлено на раскрытие основных нормативно-правовых механизмов закона, ориентированных на популяризацию физической культуры, повышение качества спортивного образования, развитие спортивной инфраструктуры, а также поддержку спортсменов, тренеров и спортивных агентов. В статье анализируются концептуальные новшества новой редакции закона, включая институт основных понятий, закрепление спортивного образования и педагогической деятельности как самостоятельного правового института, нормативное регулирование формирования сборных команд и процессов селекции, а также вопросы международного сотрудничества и антидопинговых механизмов. На основе этого формулируются научно обоснованные выводы и практические рекомендации, направленные на совершенствование управления в сфере спорта, правового регулирования, уточнение полномочий субъектов спортивной деятельности и обеспечение профессионального и институционального развития отрасли.

Ключевые слова: *физическая культура, спортивное право, нормативно-правовое регулирование, спортивная политика, управление спортом, спортивная инфраструктура, спортивное образование, массовый спорт, параспорт, антидопинговая политика*

Abstract

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni ilmiy-huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqot qonunning jismoniy tarbiyani ommalashtirish, sport ta’limi sifatini oshirish, sport infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, sportchilar, murabbiylar va sport agentlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan asosiy normativ-huquqiy mexanizmlarini yoritishga yo‘naltirilgan. Maqolada qonunning yangi tahrirdagi kontseptual yangiliklari, xususan asosiy tushunchalar instituti, sport ta’limi va pedagogik faoliyatning alohida huquqiy institut sifatida mustahkamlanishi, terma jamoalar va seleksiya jarayonlarining normativ tartibga solinishi, shuningdek xalqaro hamkorlik va antidoping mexanizmlari tahlil qilinadi. Shu orqali maqolada sport boshqaruvi va huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, sport subyektlarining vakolatlarini aniqlashtirish hamda sohaning professional va institutsional rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, sport huquqi, normativ-huquqiy tartibga solish, sport siyosati, sport boshqaruvi, sport infratuzilmasi, sport ta’limi, ommaviy sport, para sport, antidoping siyosati.*

This article provides a scientific and legal analysis of the new edition of the Law of the Republic of Uzbekistan “On Physical Culture and Sport.” The study is aimed at elucidating the key normative-legal mechanisms of the law, which are focused on promoting physical education, enhancing the quality of sports education, developing sports infrastructure, and supporting athletes, coaches, and sports agents. The article examines the conceptual innovations of the new edition, including the institute of basic concepts, the establishment of sports education and pedagogical activity as an independent legal institution, the normative regulation of national teams and selection processes, as well as international cooperation and anti-doping mechanisms. Based on this analysis, scientifically grounded conclusions and practical recommendations are presented to improve sports governance, legal regulation, clarify the powers of sports entities, and ensure the professional and institutional development of the field.

Keywords: *physical education, sports law, normative-legal regulation, sports policy, sports governance, sports infrastructure, sports education, mass sport, para sport, anti-doping policy.*

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi nafaqat sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, balki milliy salomatlik, ijtimoiy barqarorlik va sport infratuzilmasini takomillashtirish nuqtai nazaridan ham dolzarb masala hisoblanadi. Shu munosabat bilan, sohani tartibga soluvchi qonunchilik bazasini doimiy ravishda takomillashtirish va amaliyotda yuzaga keladigan huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish zaruriyati oshib bormoqda. Qonunlar orqali jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tizimli tashkil etish, sport subyektlari faoliyatini normativ asosda tartibga solish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamlashning o‘rni beqiyosdir.

Yaqinda Senat yalpi majlisida ko‘rib chiqilgan yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun bilan sohada davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, shuningdek, sport vazirligi, Milliy olimpiya va paralimpiya qo‘mitalari kabi asosiy subyektlarning vakolatlari aniq belgilab berildi. Qonun jismoniy tarbiya va sport federatsiyalari, klublari va ligalarining huquqiy maqomi, ularni reyestrga kiritish va chiqarish tartibi, murabbiylar, sport hakamlari va sport agentlarining huquq va majburiyatlari kabi masalalarni tartibga soladi. Shu bilan birga, sportda dopingning oldini olish, musobaqa natijalariga noqonuniy ta‘sir ko‘rsatishga qarshi kurashish va aholini ommaviy sportga jalb qilish bo‘yicha yangi mexanizmlarni belgilab beradi[1].

Mazkur Qonunning qabul qilinishi nafaqat sohada amaliyotda mavjud bo‘lgan noaniqliklar va huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etishga, balki vazirliklar, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini aniq belgilash orqali jismoniy tarbiya va sportni tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, yangi Qonun sport infratuzilmasini mustahkamlash, sportchilarning va murabbiylarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda jismoniy tarbiya va sportni davlat tomonidan barqaror qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi yangi tahrirdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning normativ-huquqiy, institutsional va amaliy jihatlarini kompleks tahlil qilish hamda uning sohada davlat siyosatini amalga oshirishdagi strategik ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shuningdek, Qonunning normativ mexanizmlari, jumladan sport federatsiyalari, klublar va ligalarning huquqiy maqomi, murabbiylar, hakamlar